ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Jizzax Davlat Pedagogika universituti

Maxsus pedagogika kafedrasi stajiyor o'qituvchisi

Bozorboyev Javlon

javlonbozorboyev8@gmail.com

BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA GEYMIFIKATSIYANI O’RGANISH METODIKASI

Anotatsiya: Ushbu maqolada, bo‘lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida geymifikatsiya metodikasining ahamiyati o‘rganiladi. Geymifikatsiya, o‘quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishda samarali metod sifatida qaralib, ularning motivatsiyasini oshirish, ta'limni qiziqarli va interaktiv qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Maqolada, geymifikatsiyaning pedagogik metod sifatida ta'lim jarayoniga qo‘shgan hissasi, uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda roli va bo‘lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashdagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, geymifikatsiya asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish usullari, o‘qitish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Geymifikatsiya, oligofrenopedagogika, kasbiy kompetensiyalar, ta'lim metodikasi, motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar.

Аннотация: В данной статье исследуется значение методологии геймификации в процессе развития профессиональных компетенций будущих олигофренопедагогов. Геймификация рассматривается как эффективный метод вовлечения учащихся в образовательный процесс, повышения их мотивации и предоставления возможностей сделать обучение интересным и интерактивным. В статье подробно анализируется вклад геймификации как педагогического метода в образовательный процесс, ее роль в развитии профессиональных компетенций и ее место в подготовке будущих олигофренопедагогов. Также представлены методы организации педагогической деятельности на основе геймификации, повышения эффективности обучения и возможности использования инновационных технологий.

Ключевые слова: Геймификация, олигофренопедагогика, профессиональные компетенции, методология обучения, мотивация, инновационные технологии, педагогические методы.

Abstract: This article studies the importance of gamification methodology in the process of developing professional competencies in future oligophrenopedagogues. Gamification is considered an effective method for involving students in the educational process, increasing their motivation, and providing opportunities to make education interesting and interactive. The article analyzes in detail the contribution of gamification as a pedagogical method to the educational process, its role in the development of professional competencies, and its place in the training of future oligophrenopedagogues. It also shows methods for organizing pedagogical activities based on gamification, improving teaching efficiency, and the possibilities of using innovative technologies.

Keywords: Gamification, oligophrenopedagogy, professional competencies, educational methodology, motivation, innovative technologies, pedagogical methods.

O‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan talabalarni qurollantirish universitet oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, lekin shu o‘rinda talabaning shaxs sifatida shakllanishini ham unutmasligimiz lozim. V.A.Slasteninning[135] ta’kidlashicha, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishish, uning shaxsiy – kasbiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagoglarni yetishtirib chiqaruvchi oliy ta’lim muassasalarida katta hajmdagi o‘quv materialini o‘zlashtirish talab etiladi. Bu esa talabalarda bilimlarni saralash, ularni integratsiyalashni murakkablashtiradi. Shuning uchun ham o‘qitish davomida auditoriya mashg‘ulotlarida talabalarni faollashtiruvchi, bilimlarni yaxlit qo‘llashga o‘rgatuvchi metod va tamoyillardan foydalanish zaruriyati tug‘iladi. Pedagogika oliygohlari faoliyatini tashkil qilishdagi o‘ziga xoslik o‘qitishning barcha bosqichlarida buni amalga oshirishga imkon beradi.

O‘qitish jarayoni hamkorlikdagi jarayon hisoblanadi va uning natijaviyligi faqatgina professor - o‘qituvchilarning didaktik tayyorgarligiga emas, balki talabalarning mashg‘ulotlardagi faolligiga, bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ham bog‘liq. O‘zlashtirilayotgan bilimning nazariy ahamiyati, professor- o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi va talabalar o‘quv faoliyatini ustalik bilan stimullashtirishni birlashtirish – o‘zlashtirilayotgan materialni chuqur va puxta egallash uchun mustahkam asos bo‘ladi.

Universitetlarda pedagogik jarayonni modernizatsiyalash va takomillashtirish uchun o‘qitishni kompetensiya yondashuv tamoyilidan kelib chiqib tashkil etish zamon talabidir. Ushbu tamoyil kredit – modulli o‘qitishning asoslaridan biri bo‘lib, bunda ta’lim mazmuni faqatgina bilim berishga qaratilmagan, balki talabalarda bo‘lajak kasbiy faoliyatlarida duch keladigan muammolarni bartaraf etish ko‘nikmalarini, asosiy funksiyalarni bajarishni, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishni o‘z ichiga qamrab oladi.

V.V.Serikova va A.V.Bolotovalarning[33] fikricha, “kompetensiya yondashuvga o‘quvchining bilag‘onligini emas, balki turli vaziyatlarda sodir bo‘ladigan muammolarni hal qila olish malakalarini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘zida o‘quv jarayoni kompetensiyalarni ajratishga asoslangan maqsadlarini aniqlashni, tarkibini saralashni, natijalarni baholashni, tashkiliy va texnologik ta’minotni oladi[64].

Ta’lim olish jarayoni ta’lim oluvchining qanday vazifa bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan hatti-harakatlaridan shakllanadi. Bular sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- ❖ Bilimlarni faqatgina professor – o‘qituvchilardan qabul qilish va uni tushunishdagi qiyinchiliklar;
- ❖ Asosiy bilimlarni professor – o‘qituvchilardan qabul qilish va ular asosida qo‘shimcha bilimlarni izlash va o‘zlashtirish ;
- ❖ Bilimlarni mustaqil izlash va o‘zlashtirish.

Dastlabki vaziyatda talaba professor-o‘qituvchining ta’siri ostida shakllanuvchi obekt bo‘lib qoladi. Bunda o‘qitish o‘qituvchi tomonidan beriladigan turli metodlar asosida (bilim berish, tushuntirish, namoyish qilish va talabaning ma’lum hatti-harakatlariga talablar qo‘yish asosida) tayyor axborot, tayyor bilimlar va malakalarning bayoni yotadi. Ta’lim olish taqlid qilishdan, aynan takrorlangan yoki ma’noviy idrok qilishdan, takrorlashdan, reproduktiv eslashdan, namunalar va qoidalarga oid mashqlardan iborat bo‘ladi.

Keyingi vaziyatda professor – o‘qituvchi talabalarning fe’l-atvoriga tashqi ta’sir ko‘rsatish orqali o‘quv faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayonda avvalambor, talabalarning qiziqishlarini

o‘rganish lozim, shundan so‘ng olingan natijalar asosida talabaga kerakli axborotlar uning qiziqishlariga monand tanlanadi va qo‘llaniladi. O‘quv faoliyatini tashkil etishda muammoli vaziyat, case-study, assisment, baxs-munozara, debat, hamkorlikda ishlash metodlarini qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qishga, o‘rganishga, bilim olishga, o‘zlashtirishga rag‘batlantiriladi, yo‘naltiriladi. Auditoriya mashg‘ulotlari bo‘lajak oligofernopedagoglarning turli pedagogik muammolarni hal etish va natijalarni tahlil qilish, mashqlar va xatolar, turli vaziyatlarni modellashtirish va unda xarakatlanish, bilimlarni saralash va tatbiq etish kabi amallardan tashkil topadi.

Uchinchi vaziyatda bo‘lajak oligofernopedagog o‘z hohish-istaklari, maqsadlari, qarashlari, e’tiqodi asosida xarakatlanadigan subekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu vaziyat mustaqil ta’lim olishni, o‘qishni, o‘rganishni tavsiflab ketadi, ya’ni dasturni o‘zlashtirish uchun yo‘nalish olish, topshiriqlarni tanlash, bilim manbaalarini izlash, o‘zining ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish kabi holatda yuzaga keladi.

An’anaviy ta’lim, odatda, o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish jarayoniga olib keladi, deb hisoblashadi. Buning natijasida an’anaviy ta’limning quyidagi kamchiliklarini ko‘rsatishadi:

- ❖ materialni o‘rganish umumiy sur’atining o‘rtacha holati;
- ❖ o‘quvchilar o‘zlashtiradigan bilimlarning yagona o‘rtacha hajmi;
- ❖ o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyor holda oladigan bilimlarning katta solishtirma hajmi;
- ❖ og‘zaki usullarning ustunligi;
- ❖ talabalar xotirasiga katta yuklama berilishi.

An’anaviy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar va amaliyotda pedagogik jarayonda qo‘yiladigan talablar orasidagi farq kuzatiladi.

Bo‘lajak kasb egalari bilan mashg‘ulotlarda o‘qitishning an’anaviy shaklidan foydalanish o‘quv materialini shunchaki eslab qolishga olib keladi, ya’ni faoliyat repraduktiv harakterga ega bo‘ladi. Talaba ta’lim obekti bo‘lib qoladi. Bunday sharoitlarda kompetentli mutaxassisni takomillashtirish qiyinlashadi.

Jarayonni ijobiy tomonga o‘zgartirish kasbiy faoliyatda ta’limning turli metod va shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Metod bu belgilangan maqsadga olib boruvchi yo‘l, maqsadni amalga oshirish usuli, bilim olish usuli. Ta’lim metodlari deganda biz, o‘quv dasturini o‘zlashtirishga qaratilingan ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat usullarining doimiy almashinuvini aytishimiz mumkin.

Ta’limni tashkil qilish shakli bu – o‘qituvchi va talabalarning ma’lum tartibda bahamjihatlikda olib boradigan o‘zaro xatti-harakatlarini tashqi ifodasi. Asosiysi, metodni shakldan farqlaydigan narsa shuki, metodda bilimlarni egallash usuli va o‘quvchi o‘zining ishtirok etish darajasi aks etadi.

Talabalarda kompetentlilikni takomillashtirishda ularning faoliyati tajribasiga tayaniladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar mutaxassislari o‘qitish nazariyasi yutuqlariga asoslangan ushbu qarashlarga qo‘shiladilar. Ma’lum bir ish bilan shug‘ullanish uchun o‘sha faoliyat turini amalda qo‘llab ko‘rish kerak. Amaliyotga tayanmasdan biror narsani bajarib bo‘lmaydi. Bo‘lajak mutaxassisda qandaydir kompetetsiyani takomillashtirish uchun uni faolligini oshirish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak mutuxassislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning eng muhim yo‘llaridan biri pedagogik jarayonda o‘qitishni faollashtiruvchi

metod va shakllarini saralash va qo‘llash degan xulosaga kelish mumkin. O‘qitishni faollashtiruvchi metodlar va shakllar deyilganda, bo‘lajak mutuxassislarning auditoriya mashg‘ulotlarida faol ijodiy munosabatga kirishishini va ularning auditoriyadan tashqari mustaqil ta’lim olishini rag‘batlantiradigan o‘quv jarayonini tashkil etish usullari tushuniladi.

O‘zbekiston va xorijiy pedagoglar tomonidan amaliyotda talabalarning o‘zaro munosabatlarini faollashtiruvchi bir qator ta’lim metodlari ishlab chiqilgan. Turli hil metodlarni saralash, o‘rganish va amaliyotga joriy etish, fikrimizcha, talabalarning fan modullarini o‘zlashtirishi mobaynida, ularning kasbiy kompetentligini shakllanishi uchun maqbul sharoit hozirlashi mumkin.

Auditoriya mashg‘ulotlarida talabalarni faollikka undovchi metod hamda tamoyillarni qo‘llash, ularda o‘z bilimlaridan turli vaziyatlarda amalda foydalana olish, refleksiv tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirish va axborotni qidirish, saralash, tanlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish kabi bo‘lajak kasbiy faoliyatida zarur sifatlarni tarkib topishiga zamin yaratadi.

Faollashtiruvchi metod va usullardan barcha auditoriya mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin va u aksariyat hollarda an’anaviy metod va shakllar bilan parallel qo‘llaniladi.

O‘qish jarayonini tashkil etishda oligofernopedagogik mashg‘ulotlarni modellashtirish, assisment metodi, muammoli vaziyat, ishbilarmonlik o‘yinlari, imitatsion o‘yinlar, case–study, mashg‘ulot ishlanmalarini yozish metodlaridan foydalanildi.

Bo‘lajak oligofernopedagoglarni kasbiy tayyorlashda oligofernopedagogik – korreksion jarayonni modellashtirish (oligofernopedagogik mashg‘ulotlarda turli vaziyatlarni tahlil qilish, bunday vaziyatlarda harakatlar usullarini loyihalashtirish, tavsiya qilingan vaziyatlarda harakatlarni ijro etish) olingan bilimlarni tubdan o‘zgartirishga, yaxlit holatga keltirishga imkon beradi.

Turli shakldagi oligofernopedagogik mashg‘ulotlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘lajak oligofernopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali usullaridan biri hisoblanadi. U bo‘lg‘usi mutaxassisga muammoni aniqlash, yuzaga kelish omillarini izohlash va uni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda yeng dolzarb bo‘lgan muammolar bo‘yicha munozaralar o‘tkaziladi. Bunday muhokama va munozaralarni o‘tkazish bo‘lajak oligofernopedagoglarda muammoli vaziyatlarni ko‘rish, bu vaziyatlarga holis baho bera olish va uni yechishning ishonchli usullarini tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga bo‘lajak oligofernopedagoglar muammoni (aytaylik biror nutq nuqsonini) bartaraf etishni turli yo‘nalishlarda ko‘rib chiqadilar va ular orasidan shu vaziyatdagi yeng maqbul yechim bo‘la oladigan usullarni belgilaydilar. Bu ularda nafaqat yangidan – yangi usullar, metodlarni o‘zlashtirishni balki, ularni tanlashda, saralashda nimalarga ahamiyat berish lozimligini ham o‘rganish imkoniyatini beradi. Shu sababli bo‘lajak oligofernopedagoglarni turli fikrlar va g‘oyalarning ichiga olib kirish; ularni qiyosiy tahlil qilish hamda baholashga o‘rgatish; o‘rganilayotgan vaziyatga bo‘lgan subektiv yondashuvni hosil qilish muhim hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda bajariladigan harakatlarini rejalashtirish bo‘lajak oligofernopedagoglarda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday usullar bo‘lg‘usi mutaxassislarning maqsadga qaratilgan faoliyati yuzasidan, ularning individual qobiliyatlariga monand bilim egallashini taqozo etadi. Ushbu usul mazmunan biror-bir muammoli vaziyatni yechishga bo‘lajak oligofernopedagoglarni qiziqtirishni ko‘zda tutadi. Yaratilgan pedagogik vaziyatdagi nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini topish uchun talaba shu nutq kamchiligini shaklini, darajasini, simptomatikasini aniqlashtirib olishi, unga ko‘ra

individual korreksion-pedagogik ish dasturini ishlab chiqishi, ish bosqichlari va davrlarini belgilashi talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, professor - o‘qituvchi bitiruvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatida ta’sirchan pedagogik metodlarini mustaqil yarata olishlarini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratib beradi.

Ushbu usul har xil oligofernopedagogik metodlarni qo‘llashni hamda psixolo-pedagogik, oligofernopedagogik va ixtisoslik bilimlarini birlashtirishni ko‘zlaydigan ma’lum bir muammoni hal qilishga qaratilgan hisoblanadi.

Tavsiya etilgan holatlarda oligofernopedagogik vazifalarni bajarish(ishbilarmonlik o‘yinlari). Auditoriya mashg‘ulotlarida turli xil pedagogik vazifalarni bajarishda o‘yinlardan foydalanish talabalarda motivatsiya va faollikni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda pedagogik o‘yinlar aniq qo‘yilgan maqsadlarga ega bo‘lib, ularga ishga aloqador o‘yinlar, imitatsion o‘yinlar, operatsion o‘yinlar, rolli o‘yinlar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunday o‘yinlar haqiqiy korreksion – oligofernopedagogik jarayonning sun’iy yaratilingan modelidir. Ushbu kasbiyaning muhim jixati bo‘lg‘usi oligofernopedagoglarda o‘z g‘oya va rejalarini bajara olish malakalarini takomillashtirishdan, nutq kamchiliklarini bartaraf eta olishdan, nutq nuqsoniga ega bolalardagi o‘zgarishlar dinamikasini to‘g‘ri belgilay olishdan hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga rag‘batlantirishdan iborat. Bunday o‘yinlarni auditoriya mashg‘ulotlarida tashkil etishda asosiy uch komponentga ahamiyat berish lozim:

- pedagogik o‘yin davomida oligofernopedagogik muammoni shunday qo‘yish kerakki, talabalar uni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish barobarida ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lishsin;

- o‘yinning borishini nazorat qilish va talabalarning asosiy muammodan chalg‘ib ketmasliklarini ta’minlash;
- o‘tkazilgan o‘yinning yakuniy tahlilini o‘tkazish va xulosalash.

Talabalarda o‘yin davomida o‘zaro munosabatga kirishish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, muammolar yechimini birgalikda izlash kabi malakalari rivojlanib boradi.

Case-study metodi - bu bir mavzu doirasida biriktirilgan topshiriqlar (materiallar) (test, blits savollar, muammoli vaziyat, tahlil va hokazolar) to‘plami hisoblanadi. Ushbu metodda ko‘rib chiqilinayotgan muammoning ham nazariy ham amaliy jixati umumiy jamlanadi, bu esa muammo haqida to‘liq tushuncha olishga va mazkur muammo bo‘yicha tugal xulosa chiqarishga imkon beradi. Case-study metodi qo‘llanilganda, talabalar o‘zlashtirilayotgan materialni amaliy faoliyatdagi ahamiyatini anglagan holda bilish faolligini turg‘un motivatsiyasiga ega bo‘lishadi. Bu metod bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan aniq vaziyatlar tahlili bilan masalalarni yechimini topish malakasini oshirishga qaratilgan. Keyslar metodi hamkorlikka asoslangan o‘qitishning bir turi sifatida gamifikatsiya asosida bo‘lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarining eng maqbul vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Debat ma’ruza. Uning ahamiyatli jixatlariga ma’ruza mashg‘uloti davomida bahsli masalalarni o‘rtaga tashlash, turli vaziyatlarni hal qilishda atroflicha yondashish, bir necha muqobil usullarni ko‘rib chiqish, shuningdek, bo‘lajak oligofernopedagoglarni berilgan muammoli vaziyatlarni yechishda faol qatnashishlarini ta’minlash, guruhli ishlash orqali bir tomonlama qarashlarga chek qo‘yish, umumiy xulosalash va hokazolar kiradi. Debat ma’ruzaning maqsadi o‘zlashtirilayotgan materialni real holatida tasavvur qilish, bilish

imkoniyatini yaratish, ma’lumotlarni qog‘ozga tushurishdan talabalarni biroz chalg‘itish hisoblanadi. Shu sababli berilgan muammoli vaziyatlar munozara orqali yechilgani va talabalar qarorni o‘zlari qabul qilgani maqsadga muvofiq. Shu bilan birgalikda, professor - o‘qituvchi bo‘lajak mutaxassislarning to‘g‘ri yo‘nalgan, lekin konkretlashtirilmagan xulosalarini ham xato sanamasligi va uning ijobiy jixatlarini ochib berish orqali talabalarni keyingi bosqichdagi faolligini rag‘batlantirishi lozim.

Debat ma’ruzalarni samarali ma’ruza sifatida belgilab, uni shunday tashkil etish kerakki, avvalo ma’ruzada ma’lum bir muammo qo‘yiladi, so‘ngra uning yechimi qisqacha izohlanadi, muammoni yechish uchun bahs amaliy mashg‘ulotlarga ko‘chiriladi. Bu esa talabalarni amaliy mashg‘ulotgacha muammoni yechimini mustaqil izlash, muammo yuzasidan ma’lumotlarini kengaytirish, qo‘shimcha o‘qishlariga olib keladi.

Muammoli seminar bahs-munozara ustiga qurilgan auditoriya mashg‘ulotini tashkil etishning bir turidir. Munozara paytida talabalar o‘zaro qizg‘in bahsga kirishadilar, xar hil qarashlar, fikrlar taqqoslanadi, tahlil qilinadi, solishtiriladi, guruh kelishgan holda bir to‘htamga xulosaga keladi. Muammoli seminarlar quyidagi ko‘rinishlarda tashkil qilish mumkin: Sokrat seminari, aqliy hujum, o‘z o‘rningni egalla, tok-shou uslubidagi munozaralar, simpozium munozaralar, debatlar va boshqalar.

Albatta, oliy ta’limda o‘qitishga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda talabalarni bilish faolligini rag‘batlantiruvchi boshqa metodlarni ham ko‘rishimiz mumkin, biroq, yuqorida keltirib o‘tilingan metodlarning ahamiyatli jixati shundaki, ular orqali nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni, shu bilan birga kasbiy kompetensiyani ham shakllanishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Pedagogik vositalarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi talabalarda kasbiy kompetensiyaning komponentlari darajalarini oshishiga, ko‘rsatkichlarning o‘sishiga olib keladi. Didaktik vositalarning rang-barangligi, turli-tumanligi biroq o‘quv jarayonida har birining imkoniyatlari “universal” emasligi ulardan foydalanishda maqsadga yetaklovchi bir nechta vositalarning o‘ziga xos tizimini tanlash zarurligini taqozo etadi.

Shunday qilib, pedagogika oliygohlarining Maxsus pedagogika Oligofernopedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy kompetentligini takomillashtirish ta’limning har bir bosqichida o‘qitishning faol metodlari va shakllarini tizimli didaktik vositalar asosida tashkil etish orqali yaratilgan pedagogik vaziyatlar hisobiga amalga oshiriladi. Bunda kichik guruhlarda ishlash va individual yondashuvni inobatga olish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Raximova I.R. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida muammoli ta’limdan foydalanishning nazariy-amaliy xususiyatlari. 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. T.: 2020.
2. Xamidova M.P. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so‘z boyligini oshirishning korreksion pedagogik asoslari. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. –T.: 2001. 17-b.
3. Jo‘raev N.S. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Ped. fan. nomz. diss. avtoref.– T.: 2009. – 14 b.